

QANOAT XAZINASI

*Ahmadova Shohsanam Sodiq qizi,
JDPI 2-bosqich magistranti*

Qone tilanmas farzona, qanoat tuganmas xizona

A.Navoiy

Qanoat - borida-yu yo'g'ida shukr qilmoq. Qanoat – dunyo noz -ne'matlari-yu boyliklaridan o'z ko'ngil mahzanini ortiq ko'rmoq. Qanoat- taqdiri azalga rizolik.

Qanoat... Shu birgina istilohning mazmun-mohiyatini anglab yetish, uni to'la ifoda eta olish har kimga ham nasib etavermaydi. So'z mulkning sultoni hazrat Mir Alisher Navoiy o'zining asarlari orqali ko'pgina diniy, tasavvufiy, axloqiy istilohlar qatorida qanoat tushunchasiga ta'rif beradi. Allomaning qanoat haqidagi mulohazalari "Xamsa"ning besh dostoni ("Hayrat ul -abror"ning beshinchi maqolati qanoat zikrida deb nomlangan), "Lison ut-tayr", "Nazm ul-javohir", "Arbain", "Mahbub ul qulub" (2-qism 4-bob hamda 3-qismining 70,115,127-tanbehlari), ko'pgina g'azal va qit'alarida o'z ifodasini topgan. Jumladan, "Qanoat zikrida " deb nomlangan "Mahbub ul qulub" asarining 2- qism 4-bobida Navoiy qanoatni suvi tugamas chashmaga, hurmat mevalarini beruvchi daraxtga yoxud o'zi og'ir bo'lsa-da, oxir manzili farahbaxsh bo'lgan yo'lga qiyos etadi.

Chindan ham qanoatli insonning hech narsadan kami bo'lmaydi, hamisha atrofdagilarga mehr ulashgani bois el orasida hurmat qozonadi. Bu yo'lda turli jabr-sitamlarga duch kelsa-da, shayton hiylasi-yu nafs qutqusiga qarshi kurashishiga to'g'ri kelsa-da, erishajagi jannatdir.

Ma'lumki, Alisher Navoiyning ijodi islomiy ruhdagi adabiyotga mansub. "Mahbub ul qulub " asari ham shunday xarakterga ega. Ushbu asarda yigirmadan ortiq Qur'oni karim oyatlari hamda hadisi sharifdan namunalar keltirilganligi fikrimizning yorqin dalilidir. Shuning uchun bo'lsa kerak asardagi har bir fikrni Qur'on oyatlari yoxud hadisi qudsiylar orqali dalillash mumkin. Jumladan, Navoiyning qanoat haqidagi yuqorida keltirilgan fikrlariga mos ravishda, Qur'oni karimda shunday oyat keltiriladi: "Alloh (o'zi) xohlagan kishilarining rizqini keng va (xohlagan kishilarning rizqini) tang qilur" [6;252] yoxud "Biz , albatta, sabr etganlarni o'zlari qilib o'tgan go'zal amallari barobaridagi mukofot bilan taqdirlaymiz" [6;278]. Hadisi sharifda esa shunday deyiladi: "Abdulloh ibn amr (r. a): "Kimki musulmon bo'lib, kifoya qilgudek rizqlangan bo'lsa va Alloh taolo o'sha bergan rizqiga qanoatli etib qo'ygan bo'lsa, batahqiq o'sha kishi najot topibdi".

Navoiy qanoatli hamda mol-dunyo yig'ishga ruju qo'ygan insonlar haqida shunday deydi: "Shoh uldurkim olmag'ay va bergay. Gado uldurkim, sochmagay va tergay. Ulkim qanoat mo'tod bo'ldi - shoh va gado taraddudidin ozod bo'ldi"[1;196]. Ushbu ta'rifdan anglashimiz mumkinki, ijodkor qanoat qiluvchi insonni hech kimdan olmasa-da, barchaga beruvchi shoh deb, nafi yo'lida xasislik qilib hech kimga bermay, faqat o'zi uchungina yig'ib-teruvchi insonlarni esa gado deb biladi.

Bu haqda Toho surasida shunday deyiladi: “Siz (kofirlardan ayrim) toifalarni sinashimiz uchun bahramand qilgan dunyo hayoti go`zalliklaridan iborat narsalarga ko`zingizni termultirmang, Robbingizning rizqi yaxshiroq va boqiyroqdir ” [6;321]. Qudsiy hadisda esa quyidagicha ta`kidlanadi: “Abu Hurayra: Rasululloh aytganlar: “Bir bandaiki dunyoga hirs qo`ymasa, ya`ni oxiratni dunyodan avval qo`ysa yoki hojatidan ortiqroq mol jamlamasa, Alloh taolo uning qalbida hikmatni o`stiradi, tilda hikmatni gapirtiradi va qalb dunyoning ayblarini sezadi va dunyoning dardini va davosini ham ko`rgazadi va nihoyat Alloh taolo dunyoning ofat- balolaridan sog`-salomat chiqarib, jannatiga kirgizadi ”.

Shuni ta`kidlab o`tish joizki, Navoiy ushbu fikrlarining tasdig`i o`laroq qanoat bobida barchamizga o`rnak bo`la oluvchi hayot kechirdi. Uning el-yurt obodligi yo`lida o`z mablag`idan qanchadan qancha bino-yu imoratlar, ariqlar qurdirganligi, Kamoliddin Behzoddek yosh iste`dodlarga homiylik qilganligi yoxud shohning eng yaqin kishisi bo`lsa-da, oddiy insonlardek hayot kechirganligi fikrimizning yorqin dalilidir. Balki, Navoiy shu yo`l bilan haqiqiy shohlikka erishgan bo`lsa, ne tong!

“Mahbub ul qulub”ning ushbu bobida qanoat fazilatiga qarama- qarshi tama illati keltiriladi: “Qanoatda nechakim, farog`bol, aksi tamada razolat va nakol” [2;196]. Ya`ni, qanoatda qancha rohat va farog`at bo`lsa, uning aksi bo`lgan tamada shuncha razillik va uqubat bor. Bu illatdan yiroq bo`lishning foydalari haqida so`z yuritar ekan ijodkor quyidagi ruboiy orqali fikrini yanada aniqlashtiradi:

Har kimki, qanoat taraf nisbati bor
Barcha el aro tavoze-u izzati bor,
Ulkim tama-u hirs bila ulfati bor,
Yaxshi- yomon ichra zillat-u nakbati bor.[1;197]

Ya`ni kimki qanoatli bo`lsa, el aro izzatga erishadi, nafs-u hirs ila do`st bo`lgan inson esa yaxshi –yomon ichra xor-u nahs ko`rinadi.

Shayx Shoh Ziyoratgohiy haqidagi hikoyat yuqoridagi fikrlarning tasdiqidir. Mazkur hikoyatda ilohiy sirlarni anglab yetgan Shayx Shoh Ziyoratgohiy qanoat ila yashab, qolgan umrini toat-ibodatga baxsh etishga qaror qiladi va o`zi ekin ekib kun ko`ra boshlaydi. Turli nazr-u niyozlarni, hatto podshohlikning unga taklif etgan suyurg`ollarini ham rad etadi. Shunday qanoati tufayli Shayx Allohning “azza man qanaa” (qanoat qilgan aziz bo`ladi) hukmi asosida ulug` martabaga erishadi. Endi Shayx Shohni ko`rib uning duosini olish uchun Hirot mansabdorlari, diniy ulamolari Ziyoratgoh qasbasiga uch shar`iy yo`l yurib keladigan bo`lishgan edi. Shayxning qo`llari teggan narsani ham aziz bilib, ko`zlariga surar, bundan oxiratda najot bo`lishiga-da ishonadigan bo`ldilar.

Mazkur hikoyatda ilgari surilgan g`oya zamon va makon tanlamas hikmat desak, hech mubolag`a bo`lmaydi. Negaki, har qaysi jamiyatda moddiyatga berilgan, nafsiga qul insonlar hamisha topiladi. Zakot-u hayitlik hadyalari neligini bilmaydigan “boy”larimiz bor ekanligi ham hech kimga sir emas.

Demak, Navoiy har qaysi jamiyatning “og`riq tishlari”dan bo`lgan “olg`uvchi g`aniylar”ini tama (hirs, ochko`zlik)dan yiroq bo`lib, qanoat sari yuzlanmoqqa chorlamoqda. Boisi, ijodkor ta`kidlaganidek, “Tama nomus uyini

kuydiruvchidirki, laimliq va razolatqa kamol andin, odamiylik va insoniyatqa zavol andin. Izzat xirmonini uchirguvchi, viqor shamin o`chirguvchi ham u” [1;196]. Ze`ro payg`ambarimiz (s.a.v) ta`kidlaganlaridek, “Boylik molning ko`pligi bilan emas, balki (chin) boylik nafsning boyligidir”[7;265]

Alloma ushbu fazilat haqida fikr yuritar ekan, tansixatlikning o`zi ham Allohga shukrona keltirib yashashga bois bo`lishini ta`kidlaydi: “Kafshsizlikdin malul bo`lmag`il, ayog`sizlarg`a boqib shukur qil” [5;98] . Yoxud “Badoe ulvasat” devonining 41-qit`asida shunday deydi:

Ulki, iflosdin ayog`inda
Kafsh yo`li azmi chog`i yo`qtur oning,
Shukur qildik boqib birav sori,
Ki yururg`a ayog`i yo`qtur oning.

Bandalarning shukur qilishi hamda uning mukofoti haqida Qur`oni karimda shunday marhamat qilinadi: “Agar insonga o`z tomonimizdan rohatni torttirib, so`ngra uni undan tortib olsak, u, albatta, noumid va noshukur bo`lur. Agar unga yetgan qiyinchiliklardan so`ng ne`mat torttirsak, albatta: “Mendan yomonliklar ketdi” deydi. Albatta, u xursanddir va faxrlanuvchidir. Ammo sabr qilganlar va solih amallar qilganlargagina – ana o`shalarga mag`firat va katta ajr bor”[6;197]. Imom Muslim va Imom Ahmad shunday rivoyat qiladilar: “Rasululloh (s.a.v) shunday dedilar: “Agar mo`minga xursandchilik yetsa, shukur qiladi. Bu unga xayrlidir. Agar unga biror zarar yetsa, sabr qiladi. Bu ham unga xayrlidir”.

Xulosa o`rnida shuni aytish joizki, har bir inson taqdir sinovlari oldida gangib qolmasligi, shukronalik uchun sabablarni ko`ra bilishi, taqdiri azalga qanoat hosil qilishi lozimki, shundagina inson nafaqat bu foniyy dunyoda, balki boqiy dunyoda ham aziz va mukarram bo`ladi. Zero, shoir ta`kidlaganidek,

Xorlig`lar boshi tama bilgil
Doimo “azza man qanaa” (hadisi sharifdan) bilgil. [1;264]

ADABIYOTLAR:

1. Alisher Navoiy , Mahbub ul-qulub, “Yangi asr avlodi”, Toshkent- 2019
2. Alisher Navoiy, Mahbub ul qulub, Hozirgi o`zbek tiliga tabdil, “Sano-standart”, Toshkent-2018
3. Alisher Navoiyning asarlari tilining izohli lug`ati, to`rt tomlik, O`zbekiston SSR. Toshkent. “Fan” 1983
4. Alisher Navoiy, Arbain, “Meros”, Toshkent -1991
5. Alisher Navoiy, Qit`alar, fardlar, ruboiylar tuyuqlar, “G`afur G`ulom” nashriyoti, Toshkent-1968
6. Qur`oni karim va o`zbek tilidagi ma`nolar tarjimasida “HILOL-NASHR”. Toshkent-2018
7. Al-adab al-mufrad. Imom Ismoil al-Buxoriy. Qomuslar bosh tahririyati, Toshkent-1997
8. Turopova, P. (2020). Sharof Rashidovning publitsistikasida adabiy-estetik ideal. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(44). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5465

9. Turolova, P. (2020). Sharof Rashidovning Jizzax qo'zg'oloniga bag'ishlangan "Ravshan" dramasi talqinlari. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(45). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5467
10. Turolova, P. (2020). Hamid Alimcan Eserlerinde Edebi-Estetik İdeal Kategorisi. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(44). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5469
11. Turolova, P. (2020). Ehtirom. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(41). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5472
12. Eshonqulova, S. (2020). Nodirabegim ijodida jannat, do'zah masalalari. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(85). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/7348
13. Eshonqulova, S. (2020). Zebiniso ijodida lirik qahramon ruhiyati tasvirlari. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(85). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/7349
14. Eshonqulova, S. (2020). To'g'ri talafuzdan nutq madaniyati sari. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(85). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/7351
15. Eshonqulova, S. (2020). Zebiniso ijodidan bahra olib. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(84). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/7353
16. Eshonqulova, S. (2020). Nodira ijodida ma'naviy va lavziy svn'atlarning o'rni. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(84). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/7355
17. Soatova, N. (2020). Qo'qon adabiy muhitida Amiriyning tutgan o'rni. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(54). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4739
18. Soatova, N. (2020). Tarixi anbiyo va hukamo" asarida payg'abarlari ta'rifi. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(48). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5158
19. Soatova, N. (2020). Oybek ijodini o'rganish xususida mulohazalar. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(55). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4660
20. Soatova, N. (2020). Alisher Navoiyning tasavvuf va komil inson haqidagi qarashlari. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(56). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4657
21. Soatova, N. (2020). She'riyatga ilhom baxsh etgan muhabbat. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(63). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/3615
22. Soatova, N. (2020). "Ruboiylarida aks etgan hayot". *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(67). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/3620
23. Soatova, N. (2020). Adabiyot darslarini YaPT asosida tashkillashtirish. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(67). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/3621

24. Rajabova M. B. Goethe and the East //International scientific-practical conference" XL international conference dedicated to the problems of social sciences"(March 31, 2016) Moscow-2016. – 2016.
25. Rajabova M. B. From the history of the views of the great thinkers of the East on education and upbringing //International scientific and practical conference" Fundamental and applied research: a new word in science", Moscow. – 2014. – C. 125-132.
26. Bakaevna R. M. Artistic interpretation of the mythonyms of angel and devil in the works of A //Navoi. Middle European Scientific Bulletin, ISSN. – C. 2694-9970.
27. Bakaevna R. M. Artistic interpretation of the mythonyms of Angel and Devil in the works of A. Navoi //Middle European Scientific Bulletin. – 2020. – T. 5.